

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

XX ASR IKKINCHI YARMI XITOIY ADABIYOTIDA
ROMANNAVISLIK RIVOJIDA YUY HUA O'RNINI*Maktuba Ashurova**O'qituvchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Xayot", Yuy Hua, "yangi davr xitoy adabiyoti", wen yan, bai hua (白话), "madaniy inqilob", realizm, obraz, urush.

Annotatsiya: Zamonaviy xitoy adabiyotida romanchilik salmoqli qismni tashkil etib, hanuzgacha ilmiy e'tiborga loyiqdir. Mazkur maqolada tahlilga tortilgan mavzu zamonaviy xitoy adabiyotida roman janri shakllanishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar; zamonaviy xitoy nasrida "Madaniy inqilob"ning aks ettirilishini o'rganish; zamonaviy nasrda yaratilgan asarlarda inqilobning salbiy oqibatlarini tadqiq qilish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada xitoy zamonaviy adabiyotida romanchilik janrining rivojlanish tamoyillari xronikal tartibda yoritilgan, hamda xitoy adabiyotining yorqin vakili Yuy Hua qalamiga mansub "Hayot" romani tahlil qilingan. Yuy Hua xitoy zamonaviy adabiyotining o'z yo'nalishiga ega kuchli qalam sohibidir. Uning asarlari o'quvchini tushkunlikka soladi, sababi muallif asarlarining ko'pchiligi kuchli dard va his-hayajon bilan yozilgan. Odatda yozuvchilar asarlarida o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni yozadilar. Mazkur maqolada muallifning realistik yo'nalishda yozilgan "Hayot" romanida hayot va o'lim, yashamoq va yashab qolmoq, xitoy-yapon urushining salbiy oqibatlari bosh qahramon ruhiyatining evolyutsiyasi masalalari misollar orqali tahlil etilgan.

Maqolada "Hayot" romanining mavzular ko'lami, romanda insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi yoritib beriladi. Romanda bosh qahramonlar timsolida insonning hayot mashshaqatlariga, jasorat bilan tura olishga o'zida kuch topa olganini muallif yuksak mahorat bilan o'quvchilarga yetkazib bera olgani ko'rsatiladi. Romandagi har bir obrazning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, obrazlar orqali ifodalangan muhim g'oyalar tahlil qilinadi. Romandagi

oilaparvarlik, sodiqlik, vafodorlik, ijtimoiy, tarixiy, tarixiy-siyosiy kabi masalalar asoslab berilgan.

THE ROLE OF YUI HUA IN THE DEVELOPMENT OF NOVEL WRITING IN CHINESE LITERATURE OF THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Maktubakhon Ashurova

Lecturer,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "Life", Yui Hua, "new era Chinese literature", wen yan, bai hua (白话), "cultural revolution", realism, character, war.

Abstract: Novels constitute a significant part of modern Chinese literature and still deserve scientific attention. The topic analyzed in this article is devoted to study the reflection of the socio-political and cultural factors in the formation of the novel genre in modern Chinese literature; "Cultural Revolution" in modern Chinese prose, as well as to researching the negative consequences of the revolution in the works created in modern prose. The principles of the development of the novel genre in modern Chinese literature are covered in a chronological order in this article, and the novel "Life" written by Yu Hua, a prominent representative of Chinese literature, is analyzed. Yui Hua is a powerful writer with his own style in the modern Chinese literature. While reading his works, you will feel depressed, because most of the author's works are written with strong pain and anxiety. Usually, writers describe events in their works that are happening in the social environment in which they live. This article analyzes the issues of life and death, living and surviving, the negative consequences of the Chinese Japanese war, and the evolution of the main character's psyche in the author's realistic novel "Life" through examples.

The scope of themes of the novel "Life" and the reflection of humanitarian ideas in the novel are explained in this article. Description of the author's skillfully conveying the message to the readers in the form of the main characters on how a person can find the strength to face the hardships of life, to stand bravely, and to analyze the system of characters in the novel, and to study the unique characteristics of each character, and to analyze the important ideas expressed through the characters in the novel is analyzed in the paper. The scope of themes such as family life, loyalty and devotion, social, historical, historical political issues in the novel are depicted.

РОЛЬ ЮИ ХУА В РАЗВИТИИ РОМАНОВ В КИТАЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

Мактубахон Ашурова

Учитель,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “жизнь”, Юй Хуа, “китайская литература нового времени”, Вэнь Янь, Бай хуа (百话), “культурная революция”, реализм, образ, война.

Аннотация: В современной китайской литературе романистика по-прежнему составляет значительную часть и заслуживает научного внимания.

В данной статье, анализируемая тема посвящена социально-политическим и культурным факторам формирования жанра романа в современной китайской литературе; а также исследованию “культурной революции» в современной китайской прозе; анализу вопросов отражения негативных последствий революции в произведениях, созданных в современной прозе. В статье в хроникальном порядке освещаются принципы развития жанра романа в современной китайской литературе, а также анализируется роман “Жизнь” принадлежащий перу яркого представителя китайской литературы Юй Хуа. Юй Хуа-сильный представитель, имеющий своё направление в современной китайской литературе.

В процессе чтения его произведений вы почувствуете угнетение настроения, причина в том, что большинство произведений автора написано с сильной болью и чувственным возбуждением. Обычно писатели пишут в своих произведениях события, происходящие в социальной среде, в которой они живут.

В этой статье анализируются вопросы эволюции душевного состояния героя, жизнь отрицательные последствия китайско – японской войны, а также вопросы жизни и смерти, борьба за выживание в реалистическом романе «Жизнь».

В статье освещается тематика романа «Жизнь», а также отражение в романе гуманистических идей. В романе показано как искусно автор сумел донести до читателя на примере главных героев храбрых людей, которые нашли в себе силы бороться с трудностями жизни, а также проанализирована система, изучены особенности, значимые идеи и образы. В романе обоснован круг тем, такие как: семейные отношения, верность и преданность, социальные, сравнительно-исторические вопросы.

KIRISH

Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida adabiyot va ma’naviyat davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan turli sohalarda o‘zaro aloqalar tobora rivojlanayotgan bugungi kunda har bir millatning qiyofasini belgilovchi mezonlardan biri bo‘lgan badiiy adabiyotni o‘rganish o‘sha xalqning turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlari, ruhiyati bilan bog‘liq bilimlarni oshirishda muhim omildir.

Xalq ma'naviy, ruhiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi hamda ta'minlovchi asoslardan biri badiiy adabiyotdir. Chunki so'z bilan qalblarni egallash, ma'naviy ozuqa berish qudrati badiiy adabiyotga xos bo'lgan mo'jizalardan biridir. Badiiy adabiyot har qaysi davrda o'zining qudrati bilan insonlarga bilim, ma'naviy ozuqa berib kelgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, biron bir xalqning ruhiyatini, uning kayfiyatini tushunishda badiiy adabiyot katta ahamiyatga ega.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqolaning maqsadi zamonaviy xitoy romanchiligini qiyosiy tahlil qilish orqali janr dinamikasini ta'minlovchi tamoyillarni aniqlash va unda muhim o'rin tutgan yozuvchilarning badiiy mahoratini manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

Mazkur maqolada zamonaviy Xitoy adabiyotida roman janrining rivojlanish tamoyillari va Yu Hua ijodini o'rganish, "Hayot" romanining mavzular ko'lami, romanda insonparvarlik g'oyalarning aks ettirilishini yoritib berish vazifasi ko'zda tutilgan. Shuningdek, bosh qahramonlar timsolida inson jasoratini ko'rsatish, romandagi obrazlar tizimini tahlil qilish, har bir obrazlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hamda obrazlar orqali ifodalangan muhim g'oyalarni tahlil qilish.

Usullar. Tadqiqot jarayonida romanning janr sifatidagi taraqqiyoti va yozuvchining badiiy mahoratini o'rganishda kontekstual tahlilning ijtimoiy, tarixiy-madaniy, qiyosiy va immanent tahlil metodining struktural, stilistik metod turlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Maqola natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan zamonaviy xitoy romanining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari, roman janrining ichki rivojlanish qonuniyatlari, ijodkorning badiiy mahorati, ijodiy metod, til, uslub, adabiy tasvir va shu kabi masalalarga bag'ishlangan seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda material sifatida foydalanish mumkin.

Yu Hua ijodining ilmiy muomalaga kiritilishi maqolaning ilmiy, amaliy va nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur maqola nafaqat xitoy adabiyoti uchun, balki xitoy madaniyatiga, adabiyotiga qiziquvchilar uchun yangi ilmiy izlanishlar yozilishida amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi.

Xitoy adabiyotida roman janrining shakllanishi va rivojlanish tamoyillaridan kelib chiqib xitoy adabiyotshunos olimi Chen Syaomin quyidagicha davrlashtirgan.

Xitoy zamonaviy romanchiligining XX asrning birinchi o'n yilligi (1917-1927-yillar).

1911-yilda sodir bo'lgan Sinxay inqilobi Sin imperiyasining tanazzuliga sabab bo'ldi. Ushbu voqealar asnosida 1911-1927-yillarda Xitoy adabiyotida Adabiy inqilob sodir bo'ldi. Ushbu inqilobning asosiy g'oyasi o'sha davrlarda an'anaviy yozuv bo'lgan 文 言(wen yan)dan oddiy xalqqa tushunarli 白 话 (bai hua) ga o'tish bo'lgan.

Adabiy inqilobning asoschilari bular Hu Shi¹, Chen Dusiu², Zhou Zhuozhen³ lar. Ular "Yangi yoshlar" jurnalini tashkil etib, ushbu jurnalda ilk bai hua da yozilgan asarlarni chop etishgan.

Xitoy zamonaviy romanchiligining XX asrning ikkinchi o'n yilligi Nankin o'n yilligi deb nomlangan (1928-yil iyun oyi -1937-yillar).

¹ (1891-1962) Xitoyning mashhur olimi, jamoat arbobi, Xitoyni g'arblashtirish tarafdori, Pekin Universiteti professori, Amerika da tahsil olib, AQSH ta'lim tizimini Xitoyda targ'ib qilgan.

² (1879-1942) Pekin Universiteti Adabiyot fakulteti dekani.

³ (1885-1967) Oddiy xalq tili bai hua da yozishni jadal targ'ib qilgan yozuvchilardan biri.

Birinchi. Ushbu davrda inqilobiy real fantastika yo'nalishidagi asarlar yozilgan. Ushbu yo'nalishda ijod qilgan Mao Dunning "To'lin oy" trilogiyasini keltirish mumkin. Ushbu trilogiyaning ichiga "Umidsizlik", "Silkitish", "Izlanish" asarlari kiritilgan. Eski xalq-shoirilar maktabi. Ushbu yo'nalishda ijod qilgan Lao Shening ushbu yo'nalishda yozilgan eng durdona ijod namunalari: "Alpaka" va "To'rt xil o'zgacha dunyo". Ba Jing ning "Ostonada" trilogiyasi: ushbu trilogiyaning ichiga "Oila", "Bahor", "Kuz" asarlari kiritilgan.⁴

Ikkinchi. So'l yozuvchilar asarlaridagi ommabop mavzu sevgi revolyutsiyasi. Ko'zga ko'ringan namoyondalaridan Jiang Guang Jining "Noliyotgan yer", "Daladagi shamol" asarlarini keltirish mumkin.

Uchinchi. So'l yozuvchilar uyushmasining yosh vakillari shu davrdagi revolyutsion adabiyotni tugatib zamonaviy adabiyotni shakllantirishga qadam tashlashgan. Vakillari: Ding Ling "Shafei xonim kundaligi", "Song Qiang daryosidagi quyosh porlashi". 40 yillardagi milliy satiraning boshlanishi, bu Xiao Hongning "Hayot - o'lim maydoni", "Xulan daryosi qirg'og'i" hamda Xiao Junning "Avgustdagi qishloq" romanlari bilan bog'liq.⁵

To'rtinchi. Xorijlik demokratik so'l yozuvchilar.

Beshinchi. Pekin yo'nalishidagi romanlar, XX asrning 20 yil oxiridan 30 yillarga qadar Pekinda yoki boshqa shimoliy shaharlarda liberal yozuvchilar guruhiga tegishli bo'lib, u yerdan adabiy markaz Shanxayga ko'chirilgan va u shimoliy yozuvchilar maktabi deb ham nomlangan. U so'l yozuvchilar uyushmasining eng muhim adabiy yo'nalishi hisoblangan. Sheng Song Wen ushbu yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakili edi.

Oltinchi. Yangi sentimental romanlar. Ushbu yo'nalishning yorqin vakillari: Mu Shiyna, Liu Nacha, Shi Zhaicui lardir.

Xitoy zamonaviy romanchiligining XX asrning uchinchi o'n yilligi (1937-1949-yillar).

Bu davrda yaponlarga qarshi urush bo'lgan, bu davrda ko'p bo'lmasa ham bir qancha asarlar yaratilgan. Jangari romanlar Ou Xuganning "Yarim avtomobildagi nosozlik", Satira fosh qilish romanlari Sha Ding ning "O'z choyxonasidagi oltin vasvasasi" Iyul oyi ko'rinishidagi romanlari Zhang Hen Shuning "Sababli yig'lash", Ou yang romanlari. Ushbu janrda yozilgan romanlar Xitoy zamonaviy adabiyotining uchinchi o'n yilligida yozilgan romanlar sirasiga kiradi.

Xitoy zamonaviy romanchiligining XX asrning uchinchi o'n yilligi 3 bosqichga bo'linadi.

Xitoy zamonaviy adabiyotining birinchi bosqichi 1949 - 1978-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yozuvchi va shoirlar tomonidan qishloq hayoti, yerlarni o'zlashtirishdagi o'zgarishlar mohirlik bilan aks etirilgan. Bunga misol qilib Jao Liboning "Tog'lardagi yuksak o'zgarishlar" hamda Jao Shu Lining "Qobiliyatli Li" asarlarini keltirish mumkin.

Bu davrda zamonaviy tarixiy mavzularda romanlar yaratildi. Ushbu yo'nalishning bebaho asarlari Liang Bingning "Qizil bayroq", Yang Tong ning "Yoshlik qo'shig'i", Feng de yingning "Yovvoyi gul" va "Bahor guli", Li Yun Xuening "Qadimgi shaharning bahor shamoli" va hokazolardir.⁶

Xitoy zamonaviy adabiyotining ikkinchi bosqichi bu 1978-1989-yillarni o'z ichiga oladi.

Bu davrda xitoy adabiyotida turli yo'nalishlar paydo bo'lgan, bular:

Chandiqlar adabiyoti. "Chandiqlar adabiyoti" deb nomlangan adabiyotda o'n yillik ofatlar davridagi dahshatlar va azob-uqubatlar tasvirlanib, keskin maoizm qoralandi. Ushbu davrni juda

⁴ "Istoriya Kitayskoy literatury" / L.D.Pozdneva. Sbornik trudov. – M.:izd 2016 g.

⁵ 中国文学史 "Istoriya sovremennoy populyarnoy literatury Kitaya" / Fan Bosyun. 2- chast. – M.:izd 2016 g

⁶ Fan Bosyun "Istoriya sovremennoy populyarnoy literatury Kitaya". –M.; 2016 g.

mohirlik bilan yoritgan adiblarning quyidagi asarlarini misol qilib keltirish mumkin: Lu Xin Hua ning “Chandiq”, Xuan Szi Rongning “O’rta yosh”, Feng Ji Cai ning “Qichqiriq”, hikoyalari va hokozolar. Shu bilan birga matbuot, o’z asarlarida milliy o’ziga xoslikni saqlab qolishga ko’proq e’tibor bera boshlagan yozuvchilarni allaqachon ijobiy baholagan edi. Ular “G’arb modernistlari”ga taqlid qila boshlagan mualliflar bilan ziddiyatli munosabatda edilar. Mamlakatdagi yangi muhitni yanada yaqqolroq tasvirlash uchun ular “G’arbn Xitoy xizmatiga qo’yish, qadimni zamonaviylik xizmatiga qo’yish” degan o’n yillik shiordan ijodiy foydalanishga da’vat etilganlar.

Mo Infenning “Generalning qo’shig’i” (1980) romanida “Madaniy inqilob” davrida barikadalarining turli tomonlaridan topilgan uch generalning turli qismlari tasvirlangan. Asarning asosiy belgisi – “To’rtlar to’dasi”⁷ga qarshi gapirgan, havo kuchlari qo’mondonining qamoqqa tushishi, oilasini yo’qotishi, lekin inqilob ideallariga sodiq qolishi tasvirlanganligida. Uning bolalikdagi do’sti adolatni ochiq himoya qilishga jur’at etmagan siyosiy komissar unga “To’rtlar to’dasi” tarafdorlariga qarshilik ko’rsatishga yordam beradi. Roman Mao Dun sovrinini qo’lga kiritgan. Yana shunday asarlar sirasiga kiruvchi “Lotus vodiysida” romani muallifi Gu Nua ham 50-70 yillardagi Xitoy qishlog’i hayotini tasvirlaydi.

80-yillarning o’rtalariga kelib, ko’plab ilg’or yozuvchilar yaqin o’tmishdagi dahshatlarni real tasvirlabgina qolmay, mamlakatni oldinga siljishiga to’sqinlik qilgan Xitoy jamiyatida davom etayotgan hodisalarni tahlil qilishga harakat qildilar. Xitoy adabiyoti uchun bu yangi mavzu kitobxonlar orasida katta qiziqish uyg’otdi, chunki ko’p o’n yilliklar ichida birinchi marta yozuvchilarga zamonaviy Xitoyda kuzatilgan muammolar haqida haqiqatni aytish uchun ilgari borish qiyin bo’lgan mavzularga to’xtalish imkoniyati berildi. Publitsistlar orasida taniqli yozuvchi Lyu Binyan edi. U o’z essellarida nafaqat mamlakatda sodir bo’lgan murakkab jarayonlarni tasvirlashga, balki uning “sog’lom” rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi sabablarni topishga intildi. U bu sabablarni “Madaniy inqilob” davrida hokimiyat tepasiga kelgan ma’muriy va partiya amaldorlarining korrupsiyasida ko’rdi. Liu Binyanning so’zlariga ko’ra, ular hanuzgacha odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan yangi yo’nalishga qarshi bo’lib, Xitoyda modernizatsiya qilish uchun qulay muhit yaratilishiga to’sqinlik qilmoqda. “Odamlar va bo’rilar” hujjatli filmi “Abadiy xizmat, abadiy gunohlar” inshosi (Yu Itay bilan hamkorlikda) va boshqa asarlar muallifi bo’lgan Liu Binyan o’z asarlarida “Madaniy inqilob” munosabatlari va shiorlari hali ham kuchli ekanligini aniq ko’rsatib bergan.

Shahar va xalq romanlari. Shahar romanlari Liu Shao Tang “O’ljadagi insonlar”, “Gulli ko’cha”. Xalq romanlari Cheng Di Hai “Samovar”, “O’tgan 5 yillik”, Den Ayu Cai “Notanish shahar”, Luo En Fu “3 duyumli oltin lotos”, shuningdek hikoyalar va qissalarda ham davrlashtirishning mavzu va g’oyalari yoritib berilgan. Xalq tilidan foydalanib yozilgan qissalar mavzui ijtimoiy reformalarning boshlanishiga olib kelgan. Bunga misol qilib Gao Ying Shengning “Hamyon” va “Uchar supra” qissalarini keltirishimiz mumkin.⁸

XX asrning oxirgi yillarida Xitoyda hayot asta-sekin ijod muammolari siyosiy yechimni talab qilgan islohotlarning dastlabki bosqichiga qaytdi, XX asr 90-yillarining boshlarida Xitoy adabiyotining keyingi rivojlanishida o’ziga xos qiyinchiliklar paydo bo’ldi. Bozordagi raqobat

⁷ “To’rtlar to’dasi” Xitoyda partiya ichida tashkil etilgan to’dani shunday nomlashgan. Ular tarkibiga Jian Jin, Wan Hunven, Zhan Chunxio va Yao Wenyuanlar kirgan. To’da Mao Zedun o’limidan so’ng 1976-yilda tanazzulga uchragan.

⁸ 中国文学史 “Istoriya sovremennoy populyarnoy literatury Kitaya” /Fan Bosyun. 2 - chast. –M.: 2016

bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli, yozuvchilarning turmush darajasi pasaya boshladi, ular xitoylik o'quvchi uchun kurashda Tayvan va Gonkong yozuvchilariga yutqazishar edi.

1992-yilda xitoy adabiyotida birinchi marta paydo bo'lgan yangi hodisa chet elda xitoylik yozuvchilar tomonidan xitoy hayotining yoritilish mavzusi bo'ldi. Yozuvchi Ke Yanning "Manxettandagi xitoylik ayol"⁹ yozuvchi Fan Xiangda ning "Tokiodagi Shanxaylik" asarlari tomoshabinlar orasida katta muvaffaqiyat qozondi. Ushbu asarlarda mualliflar chet elda haqiqatni go'zallashtirishga intilmagan.

"Xorijdagi xitoyliklar" mavzusi kitobxonlar orasida qiziqish uyg'otdi. Ushbu to'ldiqinda alohida adabiy yo'nalish paydo bo'ldi - chet elda tahsil olayotgan xitoylik talabalarning asarlari, ular Xitoy jamiyatidan tashqarida xitoy madaniyati haqida yozdilar. Adabiyot va tematik xilma-xillik sharoitida postmodernizm va neorealizm muammolarini muhokama qilish adabiy sohada alohida o'rin egalladi. Shunday qilib, tadqiqotchi Huang Lizhining fikricha, "Xitoyda postzamonaviy iste'mol madaniyati paydo bo'lishi natijasida "iste'mol adabiyoti" vujudga keldi, uning asosiy xususiyatlari: asarda ma'no chuqurligining yetishmasligi, shaxsning yo'qolishi" edi. Xitoy tanqidchilari Yuy Hua, Ma Yuan, Ge Fei kabi yozuvchilarning asarlarini postmodernistik adabiyot sifatida baholaganlar.

Ma'lumki, aynan romanchilik janri ko'pincha barcha xalqlarning o'chmas tarixi, madaniyati kabi muhim manbalarni o'zida mujassam qiladi. Aynan shu jihatlariga ko'ra ham u ko'pchilikka manzur bo'ladi. Sharq xalqlari adabiyotida ham romanchilik juda rivojlangan.¹⁰

XX asrning ikkinchi yarmi Xitoy zamonaviy adabiyotida roman janrining sermahsul rivojlanishiga hissa qo'shgan yozuvchilardan biri Yuy Hua dir.

Yuy Hua 1960-yil 3-aprelda Xanjou shahrining Chjeszyan provinsiyasida tavvalud topgan. Uning otasi jarroh, onasi hamshira bo'lgan. Uning maktab davrlari "Madaniy inqilob" ning endi tinchlangan davrlariga to'g'ri keladi (1966-1976-yillar). Shifokorlar oilasida dunyoga kelgan Yuy Hua maktabni tamomlagandan so'ng bir muncha vaqt ya'ni besh yil tish shifokori bo'lib ishlaydi, bu haqida adib o'zining "Ijodkorlar" deb nomlangan inshosida bu ish uning ko'nglidagi ish emasligini aytib o'tadi.

1983-yildan boshlab adibning yozishga bo'lgan qiziqishi ustun kelib, u ijod qilishni boshlaydi. Yuy Huaning adabiyotga kirib kelishining yana bir sababi uning kuzatuvlari natijasida "Madaniyat saroyida" ishlovchi xodimlar kun bo'yi bekor o'tirishlari ma'lum bo'ladi. U ham uni shunday ishga o'tkazishlarini so'raydi, lekin bu ishga kirish uchun nimadir chop ettirgan bo'lishi kerak edi.

1980-yillar boshida u o'zining bir qancha hikoyalarini chop ettiradi. Shundan so'ng o'zi uchun zerikarli bo'lgan tish shifokori kasbini tashlab ko'ngliga yaqin yozuvchilik kasbini topdi, ilgari tish shifokorlari o'z mehnatlari uchun juda past maosh olishardi shunda u "Itday ishlaydigan kambag'aldan, bo'sh vaqti ko'p kambag'alga aylandim" deb ta'kidlagan. Uning ilk ishi "18 yoshda uydan ketish" hikoyasini 1987 chop ettirgan bu asari sotuvi sust, omma orasida unchalik mashhur bo'lmagan bo'lsa ham, ammo uni avangardni sevuvchilar orasida mashhur qilgan asarlari sirasiga kiradi. Uning bolalik va o'smirlik davri Xitoydagi inqilob davriga to'g'ri keladi va shu sababli uning asarlarida Xitoy tarixidagi bu davr bilan uzviy bog'liqlikni ko'rish mumkin.

⁹ Tiraji 500 mingdan oshiq nusxada chop etilgan "Sovremennaya kitayskaya literatura kak otrajeniye sotsialnyx protsessov v KNR" N.V.Trusheva Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. 2014. №383. S 128.

¹⁰ "Xitoy adabiyoti" monografiya/J.Ziyamuhamedov, O.Ochilov, S.Nasimova., -T.: 2016y.

Yuy Hua 4 ta roman, 6 ta hikoyalar to'plami va 3 ta esselar to'plami muallifi. Yuy Huaning dastlabki asarlari (1960-yil) o'zining jozibaliligi, ba'zan detektivlik bilan bog'liq syujetlari, dinamik harakatlari, tabiat bilan uyg'unlik, badiiy til soddaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga haqiqat va absurd o'rtasidagi chegara g'ayri tabiiylik, haqiqatning tasviri Yuy Hua uchun dolzarb bo'lib qolmoqda, biroq ular asar g'oyasining asosi emas.

XX asrning ikkinchi yarmi 90 yillarida Yuy Hua ijodida yozish uslubida bosqichma-bosqich o'zgarishlar ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida uning 4 ta yirik romanlarini kiritishimiz mumkin: "Yomg'ir ostidagi qichqiriq"¹¹, "Hayot"¹² "Siu Sangun qanday qilib qon sotgani"¹³, shuningdek "Birodarlar"¹⁴.

Hikoyalar to'plamlari: "O'tmish bu bizning jazoyimiz", "18 yoshda uyni tark etish", "Qon va olxo'ri gullari", "Mumtoz muhabbat", "Dunyo go'yoki tumandek", "10 jumlada Xitoy ta'rifi".¹⁵

Fundamental siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatdagi o'zgarishlarga, ayniqsa bir avlodning ehtiyojlari va boshqa avlodning orzulari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning chuqurlashishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin emas edi. Ushbu jarayon Yuy Hua tomonidan "Ularning o'g'li" hikoyasida yaqqol tasvirlangan. Muallif asarida kambag'al bo'lgan, butun hayoti davomida ishlagan, hamma narsani tejashga odatlangan, hayotning oddiy xursandchilik, qulayliklaridan voz kechadigan ota-onasi kekxa, oila haqida hikoya qiladi. Shu o'rinda, ularning o'g'li, universitet talabasi, u zavq-shavqi uchun yashaydi va uyga taksida boradi (Yuy Hua ushbu asarida qariyalar har kuni qatnaydigan avtobuslarni aniq tasvirlaydi). Ushbu qisqa hikoya avlodlar o'rtasidagi tafovutni, kekxa avlod hayotidagi norozilik va umidsizlikni, shu bilan birga yosh avlod uchun yaxshiroq hayotga intilishni aniqlashda yordam berdi.

1992-yilda Yuy Huaning yozish uslubida keskin o'zgarish ro'y beradi va shu davrda yozilgan uning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Hayot" romani unga chinakam mashhurlikni olib keladi. Adib bu romanida sodda qishloq hayoti, oddiy bir inson taqdirida yashash va yashab qolmoq so'zlarining asl ma'nolarini yoritib bermoqchi bo'lgan. Uning personajlari turli tuman bo'lib bosh figurant o'z boshidan o'tkazgan kechinmalarini bir sayyohga xuddi kechagidek qilib so'zlab berishidir. Bu roman chop etilgandan ikki yil o'tib roman syujetlari asosida Zhan Imou tomonidan yozilgan ssenariy asosida suratga olingan film Kann festivalida Gran prini qo'lga kiritishi ushbu asar qanchalik jonli va real tasvirlar orqali yozilganini yana bir bor tasdiqlaydi.

1998-yilda Yuy Hua "Hayot" romani uchun Italiya adabiyoti mukofoti "Grinsane Kavur"ni qo'lga kiritadi.¹⁶ Uning ushbu asari dunyoning ko'plab tillariga, masalan ingliz, ispan, italyan, serb, nemis, yapon, koreys va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Yuy Hua dunyoning ko'pgina davlatlariga tanilgan Xitoy yozuvchilaridan biridir. Erishgan yutuqlari sababli uni Xitoyning Charls Dikkensi deyishadi. Xitoy adabiy tanqidchilaridan biri unga shunday ta'rif beradi: —

¹¹“在细雨呼喊。北京。1991”

¹²“活着”。北京。1992,

¹³“许桑矣怎么买血”。北京。1995

¹⁴“兄弟”。北京。2005-2006

¹⁵ 先锋小说特点-以余华小说为例/王丁丁. 中国论文·2-页 2015.05.21

¹⁶ Bundan tashqari: Djeym Djoys (Buyuk Britaniya, 2002) mukofoti. U bu mukofotni olgan xitoylik ilk yozuvchi bo'lgan. Yana "Madaniyat va adabiyot" ordeni (kavalera darajasi) (Fransiya 2004 -yil).

“一个国家，一个民族，
能有一两个用自己的文字把它写出来的人是很幸运的，能把有型的東西变成无形的東西真是太伟大了” — “Bir mamlakat, bir millat uchun o‘z mamlakat hayotini so‘z san‘ati orqali go‘zal tarzda ifodalay oladigan shunday yozuvchilarning borligi millat faxridir”.¹⁷

Yuy Hua o‘z asarlarida juda ham chiroyli va sodda badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, hamda u o‘z personajlarining kelib chiqishi va ijtimoiy ahvolini inobatga olib voqealarni juda sodda til vositalaridan foydalangan holda yaratgan.

Yuy Huaning ijodiy uslubi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u ijodining ilk davrlarida avangard yo‘nalishida qalam tebratgan bo‘lsa, “Hayot” va “Siu Sanguan qanday qilib qon sotgani” kabi asarlarini realizm uslubida yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin.

“Hayot” romani yozuvchi Yuy Huaning asarlari orasida alohida burilish yasagan romanlardan biri hisoblanadi. Ushbu roman 1992-yilda yozilgan bo‘lib, ilk e‘lon qilingan paytida ko‘p tazyiqlarga ham uchraydi. Bunga sabab unda fojiviy hayot tasviri butun yalang‘ochligi bilan to‘laligicha aks ettirilgan edi. “Hayot” romanida adib bir insonning hayot yo‘li manzaralarini real aks ettirgan bo‘lib, o‘sha davrdagi og‘ir mashaqqatli hayot va undagi mehnatkash xalq ommasining hayot manzaralari asarning bosh g‘oyasini tashkil etgan.

“Hayot” romanida ham bir insonning umr yo‘li, o‘sha davrdagi og‘ir mashaqqatli hayot va undagi mehnatkash xalqning hayot manzaralari va butun Xitoyning ayanchli tarixi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bir oila misolida kuchli ijtimoiy fon orqali yoritilgan. Asarning butun dunyoga mashhur bo‘lishining asosiy sabablaridan biri muallif asarning bosh g‘oyasini tashkil etuvchi “hayot va o‘lim” g‘oyalarini juda samimiylilik, mohirlik bilan yoritib berganida deb hisoblaymiz. Adib bosh qahramon Siu Fu Guy obraz timsolida insonparvarlik g‘oyalarini aks ettirganini ko‘rishimiz mumkin, u shunday qahramonki, u hayotida hech kimdan nafratlanmaydi. U nafaqat o‘z oila a‘zolariga mehribon, balki atrofidagi insonlardan ham o‘z yordamini ayamaydi. Uning rafiqasiga bo‘lgan mehribonchiligi ham tahsinga loyiq.

“Hayot” romani syujetini tahlil etadigan bo‘lsak, ushbu romanda syujetning barcha elementlari ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta va yechim mavjud. Asar uchinchi shaxs tomonidan so‘zlanadi. Yuy Hua asarida bir badavlat oilaning farzandi bo‘lgan va o‘z oilasining bor boyligi hamda yerlarini qimorda yutqazib qo‘ygan Siu Fu Gui ismli yigit to‘g‘risida hikoya qiladi. Fu Gui ning qilgan ishlari oqibatida otasi bu sharmandagarchilikka chiday olmasdan vafot etadi. Oilasi kambag‘al bo‘lib qolgani sababli o‘zi dehqonchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladi. Voqealar rivojida u onasi betob bo‘lib qolganligi sababli shaharga shifokor olib ketishga ketayotgan vaqtida uni gomindantlar armiyasi o‘z ixtiyoriga qarshi, urushga olib ketib qolishadi. Urushdan ikki yildan so‘ng qaytib kelganda onasi vafot etganini, qizi esa qattiq shamollash natijasida kar, soqov bo‘lib qolganini biladi.

O‘g‘il Ar Sini maktabda o‘qitish uchun qizini boshqa oilaga tarbiyalanishga berib yuboradi, shu pul evaziga o‘g‘lini maktabda tahsil olishga olib boradi. O‘g‘li uyezd boshlig‘ining xotiniga qon berish oqibatida ko‘p qon yo‘qotadi va vafot etadi. Ayoli Jya Jen og‘ir xastalanib qoladi, bu orada qizi turmushga chiqadi. Qizi juda baxtli hayot kechiradi ammo bu baxtli damlar uzoqqa cho‘zilmaydi, u tug‘ruq jarayonida vafot etadi. Farzandlarining o‘limidan so‘ng Jya Jen ham bu olamni tark etadi. Fu Gui bu ko‘rgiliklarga ham bardosh bilan chidab kuyovi va nabirasi bilan yashay boshlaydi. Hayot uni yana bir o‘lim bilan sinaydi, kuyovi

¹⁷活着/余华着。-3版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11重印）3-页

baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi. Nabirasi bilan yolg'iz qolib, endi hayotida yaxshi kunlar boshlanadi, deb hayol qilgan vaqtida nabirasi ham ovqatdan bo'kib o'ladi. Oxir oqibat u bitta xo'kiz bilan qoladi.

O'quvchi asarni o'qishni boshlaganida bosh qahramon obrazini juda yomon hulq egasi, bemehr degan tasavvurga kela boshlaydi lekin, o'quvchi o'qish davomida u hayotida olgan zarbalari va yo'qotishlari natijasida, uni butunlay o'zgarishiga guvoh bo'ladi. Romanning noodatiyligi ham shunda bo'lsa kerak, chunki kulminatsion nuqta qahramonning shunday ayanchli voqealarni, yo'qotishlar ustiga yo'qotishlar ko'rishi uning bu dunyoga bo'lgan qarashlarini butunlay o'zgartirib yuborishidadir.

“Hayot” romanida kompozitsiya o'zgacha. Har bir romanning fobulaviy asosi, syujeti, kompozitsion qurilishi o'ziga xos va ayni paytda umumiy jihatlariga egadir. Umumiy jihati romanda tasvirlangan voqealar tizimi, qahramonlar hayoti orasidagi uzviy bog'lanishlarga asoslansa, o'ziga xos ijodiy uslubi shundan iboratki, u asarda ikkita parallel olam, xotira, monolog va hozirgi hayotni parallel ravishda bayon eta olinishida. Yozuvchi o'sha davrning dolzarb voqealarini, o'lim va hayot qarama-qarshiliklarini, xitoy-yapon urushi, millatni kommunizmga o'tishi va albatta “madaniy inqilob”ni ifodalar ekan, unda birorta ham aniq sanalarni keltirib o'tmaydi. Romanda Xitoy milliy koloriti va milliy o'ziga xoslikni anglash mumkin. Sodda qishloq kishisi bo'lmish Fu Gui o'z ko'rgan-kechirgan voqealarini ifoda etadi xolos.

Roman obrazlarga juda boy ular jonli, murakkab, bularni salbiy yoki ijobiy deb emas, balki birinchi va ikkinchi darajali deb tasniflash to'g'ri bo'ladi. Chunki romanni tahlil qilish jarayonida unda salbiy qahramon mavjud emasligiga amin bo'ldik. Obrazlar asosan o'z-o'zini tarbiyalash evolyutsiyasiga erishish orqali kulminatsiyaga borishini yuqorida keltirib o'tdik.

Shu kunga qadar Yuy Huaning asarlari ko'pgina adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Uning asarlari mavzu doirasi, g'oya ko'lamining, o'ziga xosligi, asarlaridagi obrazlar xarakterlari bilan boshqa yozuvchilarnikidan yaqqol ajralib turadi.

Asarning bosh qahramonlari福贵(Fu Guy) hamda uning ayoli 家珍(Jya Jen) hisoblanadi.

Asarda shuningdek 春生(Chun Sheng), 有庆(Yu Ching) va 要照(Feng Xia) obrazlari mavjud bo'lib romanda ko'tarilgan g'oya va mavzuning keng ko'lamda yoritilishiga xizmat qiladi.

Romanda xitoy – yapon urushi davri, Xitoy qishloqlardagi odamlarning turish- turmushi, dehqonlarning hayoti, yashash tarzi, orzu-umidlariyu, armonlari yorqin tasvirlab berilgan.

Fu Guy – bu romandagi murakkab, taqdiri chigal obrazlardan biridir. Ushbu qahramon asarning boshida boy, badavlat va katta yer - mulk egasi bo'lgan oilaning yakka-yu yagona merosxo'ri bo'ladi. U yoshligida ko'p narsalarga aqli ojizlik qilgan, betarbiya, bemehr, bor vaqtini qimorbozlik hamda ayollar bilan aysh-u ishratga bag'ishlaydigan obraz sifatida tasvirlangan. Bosh qahramon oilasining butun boyligini Long Er ismli qimorbozga qimorda yutqazib qo'ygandan so'ng ular juda nochor ahvolga tushib qolishadi va oilasining hech vaqosiz qolib qashshoqlashishiga sababchi bo'ladi. Fu Guy bor boyligini qimorda boy bergandan so'ng, ko'p o'tmay bu sharmandalikka chidolmay otasi vafot etadi. Uning oilasi oldin o'zlari hukmronlik qilgan yerlarda oddiy dehqon bo'lib ishlay boshlashadi. Uning rafiqasi家珍(Jya Jen) esa har qanday qiyinchilikka qaramay erini yolg'iz qoldirmaydi. Fu Guy esa butunlay o'zga insonga aylanadi, u endi oilasi, ikki nafar farzandi va onasi uchun javobgar hisoblanadi. Kunlarning birida onasi og'ir betob bo'lib qoladi va u onasi uchun shifokor olib kelgani shaharga

ketadi. O'sha yerda baxtga qarshi Guo Min Dang¹⁸ askarlari tomonidan qo'lga tushadi va bir necha yilga ular qo'lida asir bo'lib janglarda qatnashadi. Bir amallab uyga qaytganda esa onasi olamdan o'tgan, oilasi juda nochor hayot kechirayotgan bo'ladi. Endi u oilasi bag'rida tinch va xotirjam hayot kechirishni orzu qiladi. Ammo hayot unga yana beshavqatlik qiladi, u birin-ketin farzandlari, rafiqasi, kuyovi va oxiri nabirasini ham tuproqqa qo'yadi va oxir-oqibat u bitta o'zi sigiri bilan birga hayot kechirishga majbur bo'ladi.

U o'z qo'llari bilan barcha yaqinlarini, do'stlarini tuproqqa topshiradi. Asarni o'qish jarayonida o'quvchi hayolidan xo'sh, u enda yolg'izlikda azob chekadimi? Hayotga bo'lgan qiziqishini butunlay yo'qotadimi!? O'z joniga qasd qiladimi? degan savollar tug'ilishi tabiiy. Yo'q, u hayot sinovlarini jasurlik bilan qarshi oladi. Uning ko'ngliga birgina fikr, barcha yaqinlari undan oldin bu yorug' dunyoni tark etishdi, endi u bu dunyoni tark etayotganda xotirjam ketishi mumkinligigina tasalli berar edi. Ushbu obraz timsolida biz jasurlikni ko'rishimiz mumkin. U shunday deydi: "人是为活着本身而活着的，而不是为了活着之外的事物所活着".¹⁹ "Hayotdagi eng asosiy vazifa bu –yashamoqlik, tirik qolmoqlikdir, o'zining hayotini har qanday sharoitda yashab o'tmoqlikdir". Ya'ni inson bu hayotga kelgan ekan, uning vazifasi yashamoqlik, har qanday vaziyatda yashashda davom etmoqlikdir.

Ushbu obraz timsolida biz insonparvarlik g'oyalari aks etganini ko'rishimiz mumkin, Fu Guy shunday qahramonki, u hayotida shuncha qiyinchilik va yo'qotishlar ko'rgan bo'lsa ham, hech kimdan nafratlanmaydi. U nafaqat o'z oila a'zolariga mehribon, balki atrofidagi insonlardan ham o'z yordamini ayamaydi. Uning rafiqasiga bo'lgan mehribonchiligi ham tahsinga loyiq. Yoshligida ayoligi nisbatan ko'p beboshliklar va nohaqliklar qilgan福贵(Fu Guy) endi umrining oxiriga qadar o'z ayoliga vafodor er, oilasining tayanchi bo'lib o'tadi. Ushbu obraz orqali insoniy yuksak fazilatlar, oddiy hayotiy qiyinchiliklar qurshovida ifoda etilgan:

“- 有庆一个躺在一间小屋里，那张床是用砖头搭成的。我进去时天还没黑，看到有庆的小身体躺在上面，又瘦又小，身上穿的是家珍 职后给他做的衣服。我儿子闭着眼睛，嘴巴也闭的很紧。我有庆 有庆叫了好几声，有庆一动不动，我就知道他真死了，一把抱住了儿子，有庆的身体都硬了。中午上学时他还活生生的，到了晚上他就硬了。我怎么想都想不通，这怎么也应该是两个人，我看看有庆，摸摸他的瘦肩膀，又真是我的儿子。我哭了又哭，都不知道有庆的体育教师也来了。他看到有庆也哭了，一遍遍对我说：

“想不到，想不到。”

¹⁸ 1919-yil 10-noyabrda tashkilotilgan Xitoy Xalq partiyasi, asoschisi Sun Yat Sen, 1949-yil XXR tashkil etilgunga qadar faoliyat yuritgan.

¹⁹活着/余华着。-3版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11重印）110页

我问体育老师，这才知道有庆是抽血被抽死的。当时我想杀人了，我把儿子一放就冲了出去。冲到病房看到一个医生就抓住他，医生摔到地上乱叫起来，我朝他吼道：

“你杀了我儿子”。

吼完抬脚去踢他，有人抱住了我，回头一看是体育老师。

“你时徐有庆同学的父亲？”

我没理他，体育老师放开我，我就朝一个医生扑过去，那医生转身就逃。我听到有人叫穿中山服的男人县长，我一想原来他就是县长，就是他女人夺了我儿子的命，我抬腿就朝县长肚子上蹬了一县长哼了一声坐到了地上。体育老师又抱住了我，对我喊：

“那是刘县长。²⁰”

“—Yu Ching qimirlamasdan yotadi, men uning to'yib ovqat yeya olmaganidan ozib ketgan yelkalarini quchdim. Uning joni uzilgandi. Men o'z ko'zlarimga ishonmasdim, nahotki shu mening o'g'lim bo'lsa? Ertalab uning egnida onasi tikib bergan yangi ko'ylak bor edi. Yana yig'lab yubordim. To'satdan yonimda ko'z yosh to'kib turgan jismoniy tarbiya muallimiga ko'zim tushdi. U shunday dedi:

“To'satdan to'satdan”.

Shunda men jismoniy tarbiya muallimidan o'g'limni nimadan vafot etganini so'radim va undan ko'p qon olinishi natijasida o'lganini tushundim. Jahl ustida yonimda turgan shifokorni do'pposlab ketdim va dedim:

Sen o'ldirding, meni o'g'limni sen o'ldirding.

Jismoniy tarbiya muallimi meni tutib qoldi, u kuchli edi, unga kuchim yetmasdi. Yonimizga yaxshi kiyingan, ko'rinishidan amaldorga o'xshagan odam kelib so'radi:

- Siz Yu Ching ning otasimisiz?

Men unga e'tibor bermasdan yonimda turgan shifokorga qarab haliyam baqirishda davom etardim. Amaldor o'qituvchiga meni qo'yib yuborishini buyurdi, borib shifokorni alamimdan chiqqunimcha do'pposladim. So'ngra qarshimda turgan amaldorning yoniga borib unga ham qattiq musht tushirdim, o'qituvchi yana meni tutib qoldi.

- Axir bu kishi Liu janoblari bo'ladi, qishloq raisi! – Menga aynan u kerak, hozir u mendan ko'radi!

O'sha payt amaldor menga qaradi va dedi:

- Fu Guy, bu men Chun Sheng man, quroldosh do'sting.

Men endi uning yuziga tikilib qaradim va dedim:

- Chun Shen o'zgarib ketibsan.

““福贵，我还以为你死了”。

我摇摇头说：“没死”。

春生又说：“我还以为你和老全一样死了”。

²⁰ Yuy Xua (余华)“Xayot” (“活着”)romani Pekin.1992. B.119-120

— 说到老全，我们两个都呜呜地哭上。说着我们两个人都笑了，笑着笑着我想起了死去的儿子，我抹着眼睛又哭了，春生的手放到我背上，我说；

—“春生，我儿子死了，我只有一个儿子。”

春生叹口气说：“怎么会是你的儿子？”

“春生，你欠了我一条命，你下辈子再还给我把。”

那天晚上我抱着有庆往家走，走走停停，停停走走，抱累了就把儿子放到背上，一放到背上心里就发慌，又把他重新抱到了前面，我不能不看着儿子。²¹

- *Fu Guy men seni o'lgansan deb o'ylabman.*

- *Boshimni liqillatdim va dedim: "O'lmaganman"!*

- *Chun Sheng dedi: "Men seni va Lao Quanni o'lib ketgansizlar deb o'ylardim".*

Ikkalamiz ham urush davrini Lao Quan eslab yig'lab yubordik. So'ngra ikkalamizning ham tirik ekanligimizni ko'rib jilmaydik, kulaverib, kulaverib birdan narigi xonada jonsiz yotgan o'g'lim yodimga tushdi. Men ko'z yoshlarimni artdim va yana yig'lab yubordim, Chun Sheng qo'llarini yelkamga qo'ydi, men unga:

- *Chun Sheng, mening o'g'lim o'ldi, mening bittagina o'g'lim bor edi.*

U chuqur xo'rsindi va dedi: nimaga sening o'g'ling bilan bunday bo'ldi?

- *Chun Sheng endi sen menga bitta jon qarzsan, keyingi hayotingda uni qaytarasan.*

Men Yu Chingning qo'llarimga ko'tarib uyga olib ketdim. Yo'l-yo'lakay ko'zlarimdan yosh to'xtamasdi. Charchab qolsam uni yelkamda ko'tarib ketardim, ammo uni yuzini ko'rgim kelardi. Uni yana qo'llarimga oldim. Qishloqqa yaqinlashganim sayin, yuragimdagi dard og'irlasha borardi.

Ushbu keltirilgan parchalardan insonda bo'lishi mumkin bo'lgan yuksak fazilatlarni ko'ramiz. Ulardan biri kechirimlilik ya'ni o'g'lining o'limiga sababchi bo'lgan bo'lsa ham quroldosh do'sti Chun Sheng ni kechirganligi hamda ikkinchisi esa mehribonlilik va sabr bardosh.

XULOSA

XX asar ikkinchi yarmida xitoy romannavisligi evolyutsiyasida muhim bosqichni tashkil etadi. Aynan XX asr 60-70-yillaridan yozuvchilarning mamlakatdagi muammolarga keskin tanqidiy munosabati, jahon romanchilik tajribalarini chanqoqlik bilan o'zlashtirilishi tamoyillari kuchaygani kuzatiladi. Dunyo yuzini ko'rganiga 200-yildan oshganiga qaramay mazkur romanlar xitoy kitobxonlari va butun dunyo kitobxonlari orasida juda ham mashhurdir. Ushbu romanlar xitoy adabiyotida roman janrining rivojlanishidagi eng asosiy manbalar hisoblanadi. Bu asarlar tarixiy voqealar bayoni, qahramonlik, vatanparvarlik, adolatli hukmdor, sevgi-muhabbat va hokazo mavzularni umumlashtirib turadi. Qiziqarli tomoni ular folklor elementlariga, qiziqarli syujetlarga juda boy.

Yuy Huaning xitoy zamonaviy romanchiligiga qo'shgan hissasi ayniqsa, "Hayot" romani misolida juda salmoqlidir. U romanni jo'n, hayotning real voqeliklarini sodda tilda yozganligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Ushbu romanni o'qigan inson Xitoydagi tarixiy voqea-hodisalarni, madaniyatini, va xalq og'zaki ijodi haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

²¹ Yuy Xua (余华) "Hayot" ("活着") romani. Pekin. 1992. B. 121-122

Bosh personajning hayoti davomida boshidan kechirganlari, hayotning past-balandliklariga bardavom turib borgani, har bir insonni hayotga tik turishga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

“Hayot” romanining obrazlari puxta ishlangan, romandagi siymolar davr ruhi, xarakteri, xalq mentalitetini o'zida aks ettiradi. Albatta, bu obrazlar asar voqealarida faolligi bir xil emas, demak bir xil mavqega ega emas. Adib muhitning inson xarakteriga ta'sirini ustalik bilan beradi. Bosh qahramon munofiq va bemehr inson, lekin turli hayot zarbalari natijasida o'zligini topadi, ijtimoiy faol, oilaparvar insonga aylanadi. Darhaqiqat, yozuvchi bu obraz orqali niyati pok, chin inson turli qiyinchiliklarga qaramay albatta jamiyatda o'ziga munosib o'rin topib oladi, degan g'oyani ilgari suradi. Romandagi ayol obrazlari to'g'risida xulosa qilsak, ayol va erkaklar o'rtasidagi notenglik kabi holatlarga juda ko'p guvoh bo'lish mumkin. Mazkur romanni tahlil qilish jarayonida biz ayol taqdiri, u xoh xitoy millatiga xos bo'lsin, xoh boshqa millat vakili bo'lsin, ayol eng avvalo ona va har doim oilasining tinchligi, farzandlarining baxti-saodati uchun har narsaga tayyor, u har qanday fidokorlikni beminnat amalga oshirishi, evaziga hech narsa talab qilmasligining guvohi bo'ldik. Romanda xitoylik ijodkor tomonidan xitoy millatiga mansub ayollar obrazini o'ziga xos talqin qilishini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi mazkur romanda ayollar obrazi tasvirida bayon tarzi, badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali romanga o'ziga xos bezak berdi va mazkur romanning dunyoga mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.